

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11193698>

XO‘JALİK YURİTUVCHİ SUBYEKTLARDA OPERATSİON AUDİT İŞHLARİNİ TASHKİL ETİŞH TARTİBİ

Odilova Zulfiya Odilovna

QarMII, “Audit” mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda operatsion audit ishlarini tashkil etish tartiblari va unga ta’sir etuvchi uslubiy muammolar bayon qilingan. Shuningdek, operatsion auditning zarurligi, vazifalari va afzallikkleri kabi jihatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: audit, operatsion, boshqaruv, uslub, korxona, auditor, mijoz, nazorat.

ABSTRACT

This article describes the procedures for organizing operational audit work in economic entities and the methodological problems affecting it. Also, aspects such as the necessity, tasks and benefits of operational audit are scientifically based.

Key words: audit, operational, management, method, enterprise, auditor, client, control.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны процедуры организации оперативно-ревизионной работы в хозяйствующих субъектах и методологические проблемы, затрагивающие ее. Также научно обоснованы такие аспекты, как необходимость, функции и преимущества оперативного аудита.

Ключевые слова: аудит, оперативный, менеджмент, метод, предприятие, аудитор, клиент, контроль.

Kirish. Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va zamonaviy iqtisodiyot asoslarini yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan hamda imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy va moliyaviy resurslarning barcha

turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni samarali boshqarish alohida ahamiyatga ega. Bunday muhim vazifalarni bajarishda korxonalarining ichki nazorat tizimida operatsion auditni maqsadli va samarali tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, operatsion audit korxonalarini boshqarish tizimida asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi kunda makroiqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan korxona va tashkilotlarni samarali boshqarishda ichki nazorat tizimida operatsion auditdan foydalanish davr talabi sanaladi.

O‘rganilganlik darajasi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda auditni takomillashtirishga xorijlik olimlardan Aksenenko A.F., Sheremet A.D., Nidlz B., Ivashkevich V.V., Tkach V.I., Rishar J., Kondrakov N.P., Novichenko P.P. kabilar muhim hissa qo‘shishgan.

Ushbu masalalarning ayrim jihatlari respublikamiz olimlaridan A.K.Ibragimov, M.M. Tulaxo‘jayeva, N.Y.Jo‘rayev, N.S.Sanayev, D.R.Do‘smuratov, S.V.Vohidov, E.A.Akramov, H.N.Musayev, A.Usanov, K.B.O‘razovlarning ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Biroq, tahlillarning ko‘rsatishicha, ayni paytgacha mamlakatimizda moliyaviy nazorat tizimida operatsion auditning tashkiliy-uslubiy masalalari to‘liq o‘rganilmagan.

Tahlil va natijalar. Operatsion audit ichki nazorat tizimida korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini baholash, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ta’sirini hisoblash, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni axtarib topishda alohida ahamiyatga ega. Shu sababli ham mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar, xususan korxonalar moliya-xo‘jalik faoliyatida ichki nazorat tizimining samaradorligini ta’minlashda operatsion auditni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Ammo, tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ichki nazorat tizimida operatsion auditni tashkil etishda uslubiy muammolar mavjudligi sababli amaliyotda undan yetarlicha foydalanilmayapti.

Nazariy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, xalqaro amaliyotda operatsion audit - korxona faoliyatini baholash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choratadbirlarini izlash maqsadida, shu korxona yoki uning bo‘limi faoliyatini biror

belgilangan mezonga asosan tizimli o‘rganish deb ta’riflanadi. Ushbu ta’rifda keltirilgan mezonlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Xususan, birinchi guruhga korxona yoki uning bo‘limlari, o‘z oldiga qo‘yilgan reja ko‘rsatkichlariga qanchalik erishayotganligini o‘rganish; ikkinchidan, samaradorlik, ya’ni mavjud resurslardan qanchalik tejamli foydalanilayotganligini baholovchi mezonlarni kitritidsh mumkin. Ma’lumki, operatsion auditning maqsadi korxona yoki uning bo‘limlari faoliyatida rejalarining, xususan, belgilangan biznes-reja, yillik yoki choraklik ishlab chiqarish, sotish rejalariga tegishli ko‘rsatkichlarini tekshirish, ularni haqiqatda bajarilishiga oid ko‘rsatkichlariga qiyoslash va baholash, mavjud foydalanilmayotgan imkoniyatlar yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ammo, tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, ichki nazorat tizimida operatsion auditda tahliliy amallarning zamonaviy usullaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Buning asosiy sababi uslubiy masalalar bo‘yicha muammolarning mavjudligidir. Shungdek, tahlilllarimiz ko‘rsatadiki, bugungi kunda korxonalarda buxgaiteriya bo‘limi to‘liq kompyuterlashgan bo‘lib, kompyuter tizimining ham samarali yoki samarasiz ishlayotganligini tekshirish operatsion auditning vazifasi hisoblanadi. Biroq ichki nazotar tizimida ushbu yo‘nalishda operatsion auditning uslubiy asoslari yaratilmagan. Ushbu holatlardan ko‘rinadiki, ichki nazorat tizimida operatsion auditdan samarali foydalanishda uning uslubiy asoslarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ayniqsa, auditni amaliy tashkil qilish masalalari va uslublarining zaifligini hisobga olib, auditning uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida, jumladan operatsion audit uslubiy asoslarini tadqiq etdik.

Buning uchun quyidagi muammolar hal qilinishi lozim, deb hisoblaymiz:

- operatsion auditni kimlar amalga oshiradi;
- operatsion auditda mustaqillik va ma’suliyat darajasi;
- baholash mezonlari;
- operatsion audit qirralari.

Tahlilllarimiz ko‘rsatadiki, operatsion audit asosan quyidagi ikki guruh

mutaxassislaridan biri tomonidan amalga oshiriladi:

- 1) ichki audit xizmati;
- 2) auditorlik tashkilotlari.

Ichki audit xizmati operatsion audit ishida alohida o‘rin tutishadi. Chunki, ba’zilar uchun «ichki xo‘jalik audit» va «operatsion audit» iboralari bir-birini o‘zar almashuvchidir. Lekin, har qanday operatsion auditni ichki xo‘jalik auditorlari o‘kazishadi va ichki xo‘jalik auditorlari faqat operatsion auditni bajarishadi, degan xulosaga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. Xususan, ichki xo‘jalik auditi bilan shug‘ullanuvchi ko‘pgina bo‘limlar ham operatsion audit bo‘yicha, ham moliyaviy hisobot auditni bo‘yicha ish bajarishadi. Operatsion auditni amalga oshiruvchi auditorlarning ustunligi shundaki, ular o‘zlarining vaqtlarini asosan audit qilinayotgan korxona uchun sarflaydilar. Shu bilan birga korxona va uning faoliyati xususida chuqr bilimga erishadilar. Ushbu holat samarali operatsion audit uchun juda muhimdir.

O‘z faoliyatining samaralilagini maksimallashtirish uchun ichki xo‘jalik audit bo‘limi korxona ma’muriyatiga xulosa taqdim qilishi zarur. Tashkiliy tizim ichki xo‘jalik auditorlarining mustaqil bo‘lib qolishlariga yordam beradi. Masalan, agar ichki xo‘jalik auditorlari bosh hisobchi oldida hisob beradigan bo‘lsa, u holda ularning mustaqil baho berishi va hatto bosh buxgalter bajarayotgan muomalalarning samarasiga taalluqli ma’muriyat uchun tavsiyanomalarini berish qiyinlashadi. Ammo, amaldagi uslubiy asoslarga ko‘ra, ichki audit xizmati xodimlari operatsion auditda quyidagi vazifalarni bajarishi shart:

- ichki xo‘jalik auditorlari moliyaviy va amaliy axborot hamda vositalarning haqiqiyligi va to‘liqligi haqida qisqacha ma’lumot berishlari kerak;
- ichki xo‘jalik auditorlari ichki xo‘alik nazorat tizimini ko‘rib chiqib, uning siyosat, reja, muolajalar, qonun va ko‘rsatmalar bilan mosligini aniqlashlari lozim;
- ichki xo‘jalik auditorlari resurslardan foydalanishning iqtisodi va unumdorligini baholashlari kerak;
- ichki xo‘jalik auditorlari rejalarining bajarilishi ko‘zda tutilgandek amalga oshirilayotganligini tasdiqlash uchun muomalalar va dasturlarni ko‘zdan kechirib,

tekshirishlari lozim.

Auditorlik tashkilotlari moliyaviy hisobot auditini bajarayotganda amaliy faoliyatning kamchiliklarini aniqlash va mijozga foyda keltirishi mumkin bo‘lgan tavsiyanomalar berishda operatsion auditni amalga oshiradilar. Shuningdek, auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari tarkibida buyurtmaga ko‘ra subyektning operatsion faoliyatini audit qilib beradilar. Audit davomida tashqi auditorning mijoz faoliyatiga asos bo‘ladigan bilimlari, unga amaliy faoliyat bo‘yicha tavsiyanomalarni shakllantirish uchun muhim ma’lumotlarni to‘plashga yordam beradi. Masalan, auditor mijozning tovarlar zaxirasi aylanishi joriy yilda sekinlashganini aniqladi. Auditor buning sababini ham aniqlashi mumkin. Bu jarayonda auditor amaliy sabablarni ko‘rsatishi mumkin, masalan, tovarlar zaxirasini to‘ldirish bo‘yicha siyosatning samarasizligi; xuddi shu sababga auditor rahbariyatning e’tiborini qaratishi mumkin.

Mijoz ko‘pincha o‘z faoliyatining bir yoki bir necha maxsus tarmoqlarining operatsion auditini o‘tkazish uchun auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuzadi. Odatda, bunday shartnoma korxona o‘z shtatida ichki xo‘jalik auditorlariga ega bo‘lmasa yoki ichki xo‘jalik audit mutaxassislari u yoki bu tarmoq audit tajribasiga ega bo‘lmasa tuziladi. Bunday maslahatlar berishni ma’muriyat ichki xo‘jalik auditorlariga emas, balki mustaqil auditorlik tashkilotlariga buyurtma beradi. Operatsion auditni bajarishda ikki muhim sifat - bu mustaqillik va mas’uliyat darajasidir.

Auditor xulosani kimga taqdim qilishi haqidagi masala tekshirish va tavsiyanomalar hech bir og‘ishsiz amalga oshirilayotganligini kafolatlash uchun juda muhimdir. Auditorlik tashkilotlarida odatda mustaqillikni ta’minlash u darajada qiyin emas, chunki unda ishlovchi xolis buxgalterlar audit o‘tkazilayotgan korxonaning xodimlari hisoblanmaydilar.

Operatsion auditorlarning javobgarlik jihatlari ham ularning mustaqilligiga ta’sir qilishi mumkin. Auditor agar samarasiz va unumsiz muomalalarni aniqlangan bo‘lsa, korxonaning amaliy funktsiyalari uchun javobgar emas. Auditor muomalaga

o‘zgartirish kiritishni maslahat berishi mumkin, lekin mas’ul xodim bunday tavsiyanomani qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega bo‘lishikerak. Agar auditorlar o‘zlarini bergan maslahatlarning amalga oshirilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lganlarida, ular bajarilgan ishlari uchun keyingi auditda javobgar bo‘lib qoladilar. Shunday qilib, mustaqillik chegaralanib qolgan bo‘lardi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin, ya’ni mustaqillikni ta’minlovchi maxsus talablar quyidagilardir:

1) Mustaqillik. Auditorlar o‘z auditorlik faoliyatlarida mustaqil bo‘lishlari zarur. Bu talab auditorlar o‘z ishlarini erkin va ob’ektiv bajarishlari bilan ta’milanadi. Mustaqillik auditorlarga turli ta’sirlardan erkin va ob’ektiv bo‘lgan fikrlarni berib, xulosa taqdim qilish imkonini beradi. Bu esa audit uchun juda muhimdir. Bunga ob’ektivlik va tashkiliy mavqeyi tufayli erishiladi.

2) Tashkiliy mavqeyi. Bunda audit davomida aniqlangan kamchiliklar asosida samarali harakatlar hamda tavsiyanomalar berish, chuqur tekshirishni, sohaning keng auditini ta’minalash uchun yetarli bo‘lishi lozim.

3) Obyektivlik. Ob’ektivlik ichki xo‘jalik auditorlaridan o‘z vazifalarini mustaqil, yuqori malakada haqqoniy bajarishlarini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga 2-ilova: “Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi Nizom.
2. Do‘stmurodov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003.-612 b.
3. To‘laxodjayeva M, Ilxomov Sh va boshqalar. Audit. Darslik T.: “Iqtisodiyot” 2018.-408 b.